www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Agrosanoat majmuasining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi tutgan o'rni

Jangirov G'anisher Davron o'g'li

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidani 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi geografiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada agrosanoat majmuasining mazmun mohiyati va iqtisodiyotdagi tutgan o'rni o'rganiladi.

Kalit so'zlar. Agrosanoat, tarmoq, hudud, mintaqa, dehqonchilik, chorvachilik, infratuzilma, integratsiya , sanoat, rayon.

Agrosanoat integratsiyasi – sanoat va qishloq xo'jaligining bir-biriga singib ketishi, bir butun tizimga aylanishidir. Agrosanoat integratsiyasi ijtimoiy mehnat taqsimoti va kooperatsiyasini rivojlanishining natijasidir. Tarmoqlarning bir-biridan ajralib ketishi ularning ishlab chiqargan mahsulotlarini ayriboshlashni kuchayishini talab qildi. Bir tarmoqda ishlab chiqariladigan mahsulotga talab asosan boshqa tarmoqda vujudga keladi. Natijada bir tarmoq ikkinchisiz mo''tadil rivojlana olmaydi. Bu ularni integratsiyalashuvi zaruratini keltirib chiqaradi. Sanoat va qishloq xo'jaligining rivoji ular o'rtasida aloqalarning murakkablashuviga olib keldi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlanish uchun qayta ishlash sanoatiga tushadi. Buning natijasida qishloq xo'jaligi sanoat uchun xom ashyo yetkazib beruvchi tarmoqqa aylana boradi. Qishloq xo'jaligining oxirgi iste'molchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasi kamayib boradi. O'z navbatida iste'molchilarga tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar yaqinlashib boradi. Keyingi yillarda ishlab chiqarish shu darajada yuksalib bormoqdaki, iqtisodiyotning turli tarmoqlari bir-biri bilan juda chambarchas bog'lanib qolmoqda. Ularning bog'lanishi, ayniqsa, texnologik jihatidan bir – birini to'ldiruvchi tarmoqlarda kuchli. Agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarda bu jarayon juda yorqin namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, uni tayyorlovchi, qayta ishlovchi, saqlovchi, qayta ishlangan tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib beruvchi sohalar iqtisodiyotini bir – biridan ajri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu tarmoqlar yagona bir tizimni tashkil etadi va ularning birgalikda mutanosib ishlashi provard natijaning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Agrosanoat integaratsiyasining yanada chuqurlashib borishi ob'yektiv jarayondir. Bu, albatta, qishloq xo'jaligining va umuman, agrosanoat majmuasining, iqtisodiyotning rivojlanishiga olib keluvchi jarayondir.

Agrosanoat integratsiyasining va kooperatsiyasining mahsuli sifatida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab mamlakatimizda agrosanoat majmuasi yagona tizim sifatida shakllana.boshladi.

Agrosanoat majmuasi – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash va tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib beruvchi, yagona maqsadlarga bo'ysundirilgan, texnologik jihatdan ustun darajada bir biri bilan bog'langan tarmoq va xizmatlar yig'indisidir.

Mamlakat agrosanoat majmuasiga qishloq xo'jaligi, agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor, oxirgi mahsulotlarini iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar va xizmatlar kiradi. Hudud agrosanoat majmuasi esa ma'lum, bir hudud (iqtisodiy hududlar, viloyatlar, vohalar, ba'zan tumanlar) doirasida amal qiladi. Ularning tarkibiga ayrim korxona va tarmoqlar kirmasligi mumkin.

Mamlakat agrosanoat majmuasi murakkab tarkibiy tuzilmaga ega bo'lib, uning tarkibi 4 ta sohadan tashkil tapadi. Iqtisodchi olimlar agrosanoat majmuasining tarkibi bo'yicha bir xil fikrga

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023


ega emaslar. Agrosanoat majmuasining tashkiliy-iqtisodiy masalalariga bag'ishlangan yuzlab ilmiy maqolalar, monografiyalar e'lon qilingan va dissertatsiyalar yozilgan. Ayrim olimlar agrosanoat majmuasining tarkibi 6 ta, ayrimlari esa 5 ta, bir guruhi 4 ta va boshqa birovlari 3 ta sohadan iborat deyishgan. Ularning har biri agrosanoat majmuasini tarkibini ilmiy izlanishning maqsadi bo'yicha izohlagan. Agrosanoat majmuasining tarkibini ilmiy asarlarda belgilangan tasnifini birortasini inkor qilmagan holda uning tarkibini 4 ta sohaga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu sohalar quyidagilardir.

Birinchi soha. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari (tizimi) uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi soha. Bu sohaga agrosanoat majmuasi uchun mashina, traktor, kombayn, stanoklar, ishchi mashinalar ishlab chiqaradigan mashinasozlik, ma'danli o'g'it va ximikatlar ishlab chiqaruvchi kimyo sanoati, chorvachilik uchun omixta yem ishlab chiqaruvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva mollari uchun dori-darmon ishlab chiqaruvchi ixtisoslashgan korxonalar kabilar kiradi.

Ikkinchi soha. Qishloq xo'jaligining o'zi. Bu soha agrosanoat majmuasining asosini, yadrosini tashkil etadi va majmuaning bashqa sohasiga kiruvchi tarmoqlar asosan shu tarmoq mahsulotlari asosida faoliyat yurtadilar yoki xizmat ko'rsatadilar. Qishloq xo'jaligi o'z navbatida o'simlikchilik va chorvachilik tarmoqlariga bo'linadi. Bundan tashqari agrosanoat majmuasining ikkinchi sohasiga, pillachilik, asalarichilik, qisman o'rmonchilik hamda baliqchilik kiradi.

Uchinchi soha. Bu soha - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar yig'indisidan iborat. Oziq-ovqat sanoati, paxta zavodlari, go'sht, sut zavodlari, meva sharbatlari chiqaruvchi zavodlar, Yog'-moy zavodlari, junni, kanopni, pillani qayta ishlash zavodlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yoki ularni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarni saqlaydigan korxonalar, ularni sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalar shu sohaning tarkibini tashkil etadi.

To'rtinchi soha. Bu soha - agrosanoat majmuasi infratuzilmasidan iborat. Agrosanoat majmuasi infratuzilmasi juda murakkab tarkibga ega. Su bilan birgalikda ularning ayrimlari o'z xizmat xususiyatiga ko'ra ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilma tarkibigi kirishi mumkin. SHunga qaramasdan iqtisodiy tahlil qilishning, qarorlar qabul qilish uchun zurur sifatli ma'lumotlarni olish uchun uni tasniflash maqsadga muvofiq. Infratuzilmaning o'zi ikkiga bo'linadi. Birinchi qismi ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'lsa, ikkinchi qismi ijtimoiy infratuzilmadir. Mamlakat agrosanoat majmuasining umumiy ko'rinishini quyidagicha ifodalash mumkin:



1-chizma. O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining tarkibi

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Ana shu 4 ta sohaga kiruvchi tarmoqlar birlashib, mamlakatning yagona agrosanoat majmuasini tashkil etadi. Agrosanoat majmuasining tarkibi juda murakkab bo'lib, u turli omillar ta'sirida davrlar o'tishi bilan o'zgarib, takomillashib boradi. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida talab va taklif asosida ayrim tarmoqlar, sohalar yo'q bo'lib boshqalari shakllanadi va rivojlanadi. Agrosanoat majmuasining tarkibini o'zgarishiga qishloq xo'jaligi faol ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat qishloq xo'jaligi tarkibida yuz beradigan o'zgarishlar agrosanoat majmuasi tarkibining o'zgarishiga olib keladi. Mamlakat agrosanoat majmuasi tarkibiga jahon bozorida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan kon'yukturaning o'zgarishi ham ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirayotgan hududlarda turli sabablarga ko'ra tarkibiy o'zgarishlar yuz berib turadi. Chunki bozor qonuniyatlariga ko'ra har bir davlat ishlab chiqarish tarkibini shakllantirayotganda o'zining absolyut va nisbiy ustunligini aniqlab olishi lozim. Aks holda raqobatda yengiladi va bu ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni yuzaga chiqaradi. SHu sababli qishloq xo'jaligida doimiy ravishda ixtisoslashish jarayoni takomillashib boradi. Bu esa o'z navbatida mamlakat yoki hudud agrosanoat majmuasi tarkibini takomillashishiga olib keladi. Agrosanoat majmuasining tarkibining o'zgarishiga olib keladigan sabablardan yana biri tabiiy-iqlim sharoitlarida yuz beradigan o'zgarishlardir. Tabiiy-iqlim sharoitlarning o'zgarishi qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish tarkibida o'zgarishlar yuz berishini talab qiladi. CHunki mintaqadagi tabiiy-iqlim sharoiti ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni umuman yoki qisman cheklab qo'yadi. Tabiiy-iqlim sharoit qishloq xo'jaligining ayrim mahsulotlarini yetishtirish uchun noqulay bo'lsa bu muammoni issiqxonalar yordamida hal etish mumkin. Lekin bu mahsulotlarning tannarxi nisbatan yuqori bo'ladi va buning iqtisodiy natijalarga ta'siri odatda salbiy bo'ladi. Agrosanoat majmuasining tarkibiga fan, texnika va texnologiyaning ta'siri ham katta. Fan, texnika va texnologiyaning rivojlanishi odatda mamlakat agrosanoat majmuasi tarkibiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlari ta'sirida agrosanoat majmuasining tarkibi takomillashib boradi. O'zbekiston Respublikasida asosiy e'tibor agrosanoat majmuasining birinchi sohasining imkon darajasida rivojlantirishga qaratish maqsadga muvofiq. Chunki O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi texnikalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan, saqlaydigan sohalarga texnikalariga talab katta. Hozirgi kunda respublika agrosanoat majmuasi ushbu texnikalarning salmoqli bir qismini xorijdan keltirishga majbur bo'lmoqda. Ushbu texnikalarga bo'lgan talabning importga qaramligi mamlakat agrosanoat majmuasining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.
Respublika agrosanoat majmuasida alohida e'tibor uning infratuzilmasiga qaratilishi majmuaning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida agrosanoat majmuasining ahamiyati va o'rni juda katta. Uning o'rni eng avvalo mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi salmog'i balan belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning 50 foizidan ko'prog'i agrosanoat majmuasida ishlab chiqariladi. Majmuaning ahamiyati eng avvalo uning ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning qimmati bilan belgilanadi. Gap shundaki, agrosanoat majmuasining oxirgi mahsuloti insonlar kundalik iste'moliga qaratilgan oziq-ovqat va insonlarning shaxsiy kiyim-kechaklari, uy-ro'zg'or buyumlari hisoblanadi.

Respublika agrasanoat majmuasi eksportbop mahsulotlar yetishtiradi va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qattiq valyuta tushumini ta'minlashda faol qatnashadi. Mamlakat iqtisodiyotiga tushayotgan qattiq valyuta iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilishga, yurt havfsizligini ta'minlashga, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish maqsadlariga sarflanadi. Bu resurslarni takror ishlab chiqarish, mamlakat agrosanoat majmumasining rivojlanishi, aholining turmush darajasini oshirish to'g'ridan–to'g'ri shu majmuaning faoliyati bilan bog'liq.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

O’zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining faoliyati samarali bo’lsa, halqning turmush darajasi yuqori bo’ladi yoki aksincha. Agrosanot majmuasini rivojlanishtirish har qanday davlatning, shu jumladan, O’zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biridir. O’zbekiston Respulikasi agrosanoat majmuasi iqtisodiyotning nisbatan yaxshi rivojlangan sohasi hisoblanadi. Uning mamlakat hayoti uchun iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati juda katta. CHunki bu soha katta moliyaviy resurslar talab qilmasdan katta samara bera oladigan sohadir. Boshqa tarmoqlarni tashkil etish va rivojlantirish, o’z navbatida, katta moliyaviy va yangi sohada ixtisoslashgan asosiy vositalar, mehnat resurslarining bo’lishini talab qiladi. Agrosanot majmuasi esa, O’zbekiston Respublikasining tarixan mavjud bo’lgan va rivojlangan sohalaridan biri hisoblanadi. Mamlakat aholisi juda qadim davrlardan qishloq xo’jaligi bilan shug’ullanib keladi. Mamlakat aholisi qishloq xo’jaligini yuritishda juda katta malakaga ega. SHu sababli ham agrosanoat majmuasini rivojlantirish O’zbekiston Agrosanoat majmuasida davlatning ulushi minimallashtirildi va novdavlat sektor hal qiluvchi asosiy kuchga aylandi. Hozirda mamlakat qishloq xo’jaligida yetishtirilayotgan yalpi mahsulotning 99 fozidan ko’prog’i nodavlat sektorida ishlab chiqarilmoqda. Mamlakatda don yetishtirishni 10-12 mln. tannaga yetkazish, go’sht, sut yetishtirishni eng kamida ikki, tuxum yetishtirishni 3 martaga ko’paytirish talab qilinadi. Albatta fiziologik me’yor (energiya olish) nuqtai nazaridan oziq-ovqat muammosi mamlakatda to’liq hal etilgan. Ammo oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ijtimoiy – iqtisodiy tomondan baholanganda katta muammo bo’lib turibdi. Gap shundaki, fiziologik me’yor bo’yicha olinayotgan energiya qaysi mahsulotlarni iste’mol qilish evaziga hosil bo’lmoqda, degan savol tug’iladi. Hozirda mamlakat aholisi oziq – ovqatdan olinayotgan energiyaning asosiy qismi non va non mahsulotlari, kartoshka, uglevodlar va mevalarni iste’mol qilishdan olinmoqda. Inson organizmi talab darajasida mo’’tadil faoliyat ko’rsatishi uchun esa balanslashgan oziq-ovqat mahsulotlari iste’mol qilish talab etiladi. Respublikada bu mahsulotlardan jon boshiga qanchadan iste’mol qilinishini ko’rsatuvchi maxsus me’yor ham ishlab chiqilgan. Bu borada, ya’ni balanslashgan oziq–ovqat iste’mol qilishda, hali jiddiy kamchiliklar mavjud. Ayniqsa, chorvachilik, asalarichilik, baliq mahsulotlariga bo’lgan talab katta bo’lishiga qaramasdan shu mahsulotlar bilan aholi qoniqarsiz holda ta’minlangan. Shu jihatdan mamlakatda yer, suv, mehnat va boshqa resurslardan foydalanishning eng samarali yo’llarini topish, fan, texnika va texnologiyaning eng ilg’or yutuqlarini ishlab chiqarishga qo’llash orqali qishloq xo’jalik mahsulotlari yetishtirish va ulardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko’paytirish, assortimentini yaxshilash agrosanoat majmuasining bosh vazifalaridan biridir. Agarda yer yuzi aholisining 2 mlrd.ga yaqini ochlik, to’yib ovqat yemaslik va ichimlik suv tanqisligi sharoitda yashayotganini xisobga olsak, bu muammo nihoyatda muhimligi ayonlashadi. Bundan tashqari yer yuzi aholisi, jumladan, O’zbekiston Respublikasi aholisi ham ko’payib bormoqda. Hisob-kitoblarga qaraganda, 2030 yilga borib Respublika aholisi 46-mln. kishini tashkil etar ekan.

Mamlakat agrosanoat majmuasi tarmoqlarida, ayniqsa, qishloq xo’jaligida, mehnat unumdorligini oshirish. Ma’lumki mehnat unumdorligining yuqori bo’lishi juda katta ijobiy natijalarga olib keladi. Mehnat unumdorligining oshishi mahsulot tannarxi nisbatan past bo’lishini, katta miqdordagi resurslar tejalishini ta’minlaydi. Qishloq xo’jaligidan mehnat resurslarining bo’shashiga olib keladi. Qishloq xo’jaligidan bo’shagan mehnat resurslari nisbatan ko’p malaka va bilim talab qiladigan sanoatning turli saholarida ishlashi uchun imkoniyatlar tug’iladi. Natijada mamlakat mehnat resurslarining sifat darajasi oshadi. Bu esa eng katta boylik hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlar tarjibalari shuni ko’rsatadiki, bizda mehnat unumdorligini oshirish imkoniyatlari juda katta. Masalan: AQSH, Germaniya, Gollandiya kabi rivojlangan davlatlarda qishloq xo’jaligida band bo’lgan bir xodim mamlakat aholisining 90-110 tasiga yetarli mahsulot

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

ishlab chiqariladi. Bizda bu ko'rsatkich 9-12 tani tashkil etadi. Albatta, rivojlangan davlatlar agrosanoat majmuasi tarkibida asosiy mehnat resurslari agrosanoat majmuasining qishloq xo'jaligiga xizmat qiladigan yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan sohalarda band. Agar umuman, agrosanoat majmuasida mehnat unumdorligini hisobga olsak, yuqoridagi nisbatning farqi kamayadi. Shunga qarmasdan rivojlangan davlatlar va O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligining darajasi o'rtasidagi farq juda katta. Shu sabablarga ko'ra, mamlakat agrosanoat majmuasida mehnat unumdorligini oshirish eng muhim vaziflardan biri bo'lib qoladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatda yutib chiqish va barqaror rivojlanish uchun mehnat unumdorligini oshirishga et'iborni kuchaytirish lozim.
Majmua tarmoqlarining bir–biri bilan mutanosib holda rivojlanishni ta'minlash. Bu juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega vazifalardan biridir. Hozirda mamlakat agrosanoat majmuasining birinchi sohasi - agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning mavjudligi va borlarining rivojlanish darajasi talabdagidan juda past. Natijada, respublika qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan traktorlarning katta qismi, kombaynlar, yuk avtomobillarining yuz foizi import evaziga qoplanadi. Mamlakatda tarktor, paxta terish mashinasi va qator qishloq xo'jaligi uchun zarur ishchi mashinalar ishlab chiqarishga yetarlicha imkoniyat bor.

Qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning nobud bo'lmasligi jihatidan ularni tayyorlovchi, qayta ishlovchi, saqlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoq va xizmatlarning mavjudligiga, ularning jihozlanishiga va bir me'yorda yetarli quvvat bilan ishlashiga bog'liq. Hozirda qishloq xo'jaligida yetishtirilgan ayrim mahsulotning katta bir qismi ana shu tarmoqlaridagi kamchiliklar sababli nobud bo'lmoqda. Bu esa ishlab chiqarish resurlari, mahsulotlar taqchilligi sharoitida yo'l qo'yib bo'lmaydigan yo'qotishdir. Ayniqsa pomidor, uzum, olma kabi mahsulotlar pishgan paytda ularni tayyorlovchi, saqlovchi va qayta ishlovchi tashkilotlar quvvatining yetishmasligi bunga sabab bo'lmoqda. Ba'zi hollarda mavjud quvvatlardan foydalanish darajasining pastligi ham iqtisodiyotga katta zarar keltiradi. Masalan, hozirda go'shtni qayta ishlash sanoati o'z quvvatidan yil davomida 5-18 foizga foydalanmoqda. Bu, o'z navbatidan ishlab chiqarish samaradorligini pasayishiga, mavjud resurslarning bekor turib qolishiga olib keladi.
Umuman olganda, agrosanoat majmuasi tarmoqlarini bir–biriga mutanosib rivojlantirish juda murakkab bo'lsada, bu masalaga e'tiborsiz bo'lish mumkin emas. Uni oqilona hal etish iqtisodiy siyosatning eng muhim vazifalaridan biridir.
Aholining (majmuada banda bo'lganlarning) turmush darajasini ko'tarish, qishloq joylarda yashash sharoitlarini yaxshilash. Bu vazifani bajarishga mamlakat prezidenti, hukumati tomonidan alohida e'tibor berilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq qishloq aholisining turmush sharoitini ko'tarish, ularni ish bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida aholiga 650 ming gektardan ko'proq yer tarqatilib berildi. O'zbekiston Respublikasida 82 foiz uy xo'jaliklarining tomorqa yeri bor. Qishloq xo'jaligida 97 foiz uy xo'jaligining qishloq xo'jaligi maqsadlarida ishlatishga yaroqli yerlari mavjud. Qishloq xo'jaligida uy xo'jaliklari uchun ajratilgan yerlarning 60 foizi qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun ishlatilmoqda. Bu ko'rsatkichni 90 foizdan oshirish qo'shimcha ravishda ko'plab miqdorda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish imkonini beradi. Uy xo'jaliklariga ajratilgan yerlardan to'liq va samarali foydalanish qishloq aholisining turmush darajasini ham ko'taradi.

Agrosanoat integratsiyasi qishloq xo'jaligining sanoat tarmoqlari bilan yagona bir tizimga aynalishi yoki qishloq xo'jaligi bilan sanoatning bir organizmga aynalishini anglatadi. Agrosanoat majmuasi-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, tayyorlash, ularni qayta ishlash, tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanuvchi tarmoqlar va majmua tarmoqlariga xizmat ko'rsatuvchi sohalar yig'indisidir. Agrosanoat majmuasiga kiruvchi

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar va xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma ham kiradi. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari 4 ta sohaga bo'linadi. Agrosanoat majmuasi birinchi sohasiga ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, ikkinchi sohasiga qishloq xo'jaligi, uchinchi sohasiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorovchi, qayta ishlovchi va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar, to'rtinchi sohasiga infratuzilma kiradi. Infratuzilma o'zi ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga, ishlab chiqarish infratuzilmasi ikkinchi guruhga esa ijtimoiy infratuzilma kiradi. Agrosanoat majmuasining rivojlanganlik darajasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasini belgilaydi. Xalqning turmush darajasi asosan mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Mamlakat agrosanoat majmuasi tarmoqlari oldida quyidagi asosiy maqsadli vazifalar turibdi: Birinchidan, agrosanoat majmuasi mahsulotlarini ishlab chiqarishning miqdorini ko'paytirish; ikkinchidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va ularning assortimentini yaxshilash; uchinchidan, agrosanoat majmuasi tarmoqlarida mehnat unumdorligi oshirish; to'rtinchidan, agrosanoat majmuasi mahsulotlarini tannarxini pasaytirish; beshinchidan, agrosanoat majmuasiga kiruvchi tarmoqlarning mutanosib rivojlanishini ta'minlash; oltinchidan, agrosanoat majmuasi tarmoqlarida bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirishdir. Mahsulotlar va xizmatlar eksportini ko'paytirish, xorijiy davlatlarning ilg'or tarjibasini o'rganish va ishlab chiqarishga joriy qilish, kadrlar malakasini, bilimini oshirish, mehnatkashlarning turmush sharoitlarni yuksaltirish masalalari ham agrosanoat majmuasining muhim vazifalari hisoblanadi. Respublika agrosanoat majmuasining salohiyatli imkoniyatlaridan maksimal foydalanishga erishish iqtisodiyotning ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.